

UDK: 338.4

Alimova Dildora Damirovna
tayanch doktorant
BuxMTI

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATIDA RESURS SALOHIYATINING MOHIYATI VA ROLI

Annotatsiya. Maqola resurs salohiyatining mohiyati, roli va tuzilishini aniqlashga bag'ishlangan bo'lib, unda turli olimlarning talqinlarida "xizmat ko'rsatish korxonalarining resurs salohiyati" kategoriyasi, uni talqin qilishning asosiy yondashuvlari, shu jumladan resurslarga asoslanadigan va natijaga asoslanadigan yondashuvlar tahlil qilingan. Resurs salohiyati va raqobatbardoshlik o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan va korxonani strategik rivojlantirishdagi o'rni belgilangan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, resurs, resurs salohiyati, resurs ta'minoti, resurslarni boshqarish, samaradorlik.

Kirish

Zamonaviy sharoitda resurslardan eng samarali va oqilona foydalanadigan tashkilot biznes muhitida yetakchiga aylanadi. Bozor munosabatlari va qattiq raqobat shunday sharoitlarni belgilaydiki, korxonaga nafaqat o'z mavqeini saqlab qolishi, balki faoliyat ufqlarini kengaytirishga intilishi kerak bo'ladi. Albatta, har qanday faoliyat sohasidagi tijorat tashkilotining asosiy maqsadi minimal xarajatlar bilan maksimal foyda olishdir. Ushbu maqsadga doimiy ravishda erishish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'zining butun salohiyatini faollashtirishi va yuzaga keladigan imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishi kerak. Tashqi va ichki muhit belgilagan sharoitlariga mobil ravishda javob qaytarish uchun xo'jalik yurituvchi subyektning o'zi haqida, uning resurs salohiyati va ochiladigan imkoniyatlari to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Bu nafaqat resurslar va imkoniyatlarni aniqlash, balki ulardan samarali foydalanish imkonini beradigan muntazam, puxta tahliliy ishlarni talab qiladi. Shu munosabat bilan tashkilotning resurs salohiyatini va uning tarkibiy elementlarini o'rganish muhim masaladir.

Korxonaning resurs salohiyatining mohiyatini nazariy tushunish, manbalarni aniqlash va undan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish butun xo'jalik tizimini strategik rivojlantirishning asosiy tamoyillarini shakllantirishga imkon beradi.

Hozirgi vaqtda korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish zarurati ular oldiga rivojlanishning yangi modellarini ishlab chiqish va barcha turdagi resurslardan foydalanish sohasida tubdan yangi vazifalarni qo'yimoqda. Korxonaning resurs salohiyatini boshqarishning samarali tuzilmalari va shakllari, shuningdek usullari to'plami uning faoliyatiga barqarorlashtiruvchi ta'sir ko'rsatishi va raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

Resurs salohiyatiga bag'ishlangan tadqiqotlar sonining ko'payishiga qaramay, ushbu muammoni to'liq ilmiy o'rganilgan deb bo'lmaydi. «Resurs salohiyati» kategoriyasini ko'rib chiqishning ahamiyati, shundaki, istiqboldagi davrda yakuniy, ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishning har qanday maqsad va vazifalari asosan jamiyatning resurs salohiyati bilan belgilanadi. Shuning uchun hozirgi kunda resurs salohiyatining turli xil jihatlarini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning nazariy asosi sifatida zamonaviy mualliflarning "xizmat ko'rsatish sohasining resurs salohiyati» kategoriyasini tahlil qilish masalalari bo'yicha ilmiy ishlari xizmat qildi. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining resurs salohiyatini aniqlashga bo'lgan yondashuvlar va uni shakllantirishning nazariy asoslarini o'rganish jarayonida quyidagi umumiy

ilmiy usullardan foydalanilgan: tavsif, qiyosiy tahlil, dialektika, umumlashtirish usuli, sintez, grafik usul, murakkablik va izchillik.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Resurslardan samarali foydalanish, resurs salohiyatini baholashning nazariy asoslari rus olimlari E. V. Bogomolova, T. N. Tolstix, B. I. Smagin, A. P. Shatrova, V. A. Svobodin, I. Ch. Asxabaliyeva tomonidan o'rganilgan va ishlab chiqilgan. O'zbek olimlari Q. Abdurahmonov, G. V. Yakshibayeva, G. R. Madraximova va boshqalar resurs salohiyati kategoriyasining mohiyatini ochib berishda o'z hissalarini qo'shishgan.

Resurs salohiyati tushunchasi iqtisodiy fanlarda keng ko'rib chiqiladi. Keng ma'noda resurs salohiyati yakuniy milliy iqtisodiy natijaga erishishda ishtirok etadigan tabiiy va iqtisodiy resurslar to'plami sifatida qaraladi. Bugungi kunda uni talqin qilishda bir qator yondashuvlar mavjud.

Rus olimlari E. V. Bogomolova va T. N. Tolstix resurs salohiyatini tadbirkorlik tuzilmasining o'zaro bog'liq bo'lgan barcha turdagi resurslarining yig'indisi sifatida belgilaydilar, ulardan foydalanish esa maksimal iqtisodiy samaraga erishishga imkon beradi. [1]

B. I. Smaginning fikriga ko'ra resurs salohiyati deganda har bir resursning miqdori, sifati va ichki tuzilishi bilan belgilanadigan mehnat, tabiiy va moddiy xarajatlar majmui tushuniladi. [2]

A. P. Shatrova korxonaning salohiyatiga alohida e'tibor qaratadi va korxonada foydalanmayotgan, ammo hozirgi paytda tashqi muhitda mavjud bo'lgan va kelajakda olishi mumkin bo'lgan barcha mavjud resurslarni ishlab chiqarishga jalb qilish zarur deb hisoblaydi. [3]

V. A. Svobodin resurs salohiyati tarkibiga korxonada egalik qiladigan barcha resurslar to'plamini kiritadi [4].

I. Ch. Asxabaliyeva nuqtai nazaridan xizmat ko'rsatish sohasining resurs salohiyati – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda foydalaniladigan bir-birini to'ldiruvchi (komplementar) resurslar majmuasidir. [5]

G. R. Madraximova korxonaning resurs salohiyati tushunchasini ikki nuqtayi nazardan ko'rib chiqishni taklif qiladi: bir nuqtayi nazardan, miqdoriy va sifat xususiyatlariga ega bo'lgan moddiy va intellektual resurslar to'plami; boshqa nuqtayi nazardan, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va boshqarish qobiliyatlari va ko'nikmalari. [6]

Boshqa olimlarning ta'kidlashicha, xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy qismlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarining resurs salohiyati sanoat-innovatsiyadan servis-texnologik iqtisodiyotga o'tish jarayonida moddiy-texnik, mehnat, moliyaviy va axborot-innovatsion ta'minot rolini o'ynaydi.

Tahlillar va natijalar.

Korxonaning resurs salohiyati – bu ichki va tashqi muhit omillarining ta'sirini hisobga olgan holda tizimning maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlarini tavsiflovchi xo'jalik yurituvchi subyektning yig'ilgan resurslari to'plami. U kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlarini baholash uchun zarurdir, chunki u resurs manbalarini kengaytirish, to'ldirish va ko'paytirish yo'nalishlarini hisobga oladi. Korxonada resurslari korxonaning asosiy funktsiyalarini amalga oshirishni ta'minlaydigan korxonaning potentsial imkoniyatlarining tartibga solingan to'plamidir. Ko'rib chiqilayotgan kategoriya ostida korxonaning texnik, texnologik, energiya, axborot, innovatsion, investitsiya va mehnat resurslari majmui tushuniladi.

Resurs salohiyatining asosiy tarkibiy qismlari turli xil funktsional maqsadlarga ega bo'lgan unsurlardir: moddiy, axborot, moliyaviy, intellektual va boshqa turdagi resurslar.

Moddiy resurslar tadbirkorlik faoliyati ko'lami va sur'atlariga ta'sir ko'rsatadigan salohiyatning texnik va texnologik bazasini belgilaydi.

Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida axborot resurslari (shu jumladan bilim bazalari, modellar, algoritmlar, dasturlar va boshqalar kabi faol shakllar) alohida ahamiyatga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyatning rivojlanishi va bilimlardan foydalanishning faollashishi bilan axborot resurslari zaxiralari kamaymaydi, aksincha ko'payadi va ushbu turdagi resurslarni faqat boshqa turdagi resurslar bilan birlashtirgandagina samarali bo'lishi mumkin.

Moliyaviy resurslar mavjud resurslarning organik birligi va ularni muqobil investitsiyalashning foydalanilmagan imkoniyatlari sifatida resurs salohiyatining ajralmas

qismidir. Ushbu resurslar mavjud bo'lgan va biznesning strategik maqsadlarini amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan moliyaviy imkoniyatlarning manbalari va zaxiralari to'plami bilan tavsiflanadi.

Resurs salohiyatining asosiy tarkibiy unsurlaridan biri bu intellektual resurslardir. U nafaqat ta'minlash funksiyasini bajaradi, balki tadbirkorlik tuzilmasini strategik rivojlantirish mexanizmi sifatida ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, intellektual resurs insonga tegishli bo'lgan va undan ajralmas va amalda kundalik hayotda foydalanadigan ishlab chiqarish ko'nikmalari, bilimlari, qobiliyatlari to'plami sifatida ko'riladi.

Resurs salohiyati tarkibida strategik yo'nalishga ega resurslar to'plami sifatida belgilanishi mumkin bo'lgan tashkiliy va boshqaruv resurslariga alohida o'rin beriladi. Boshqa resurslardan farqli o'laroq, boshqaruv resurslari asosan nomoddiy bo'lib, inson kapitaliga tegishli bo'lib, operatsion va taktik muammolarni hal qilishdan ko'ra sifat jihatidan yangi rivojlanish holatiga erishish uchun sharoitlarni ta'minlashga ko'proq e'tibor qaratadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, tashkiliy va boshqaruv resurslarining rivojlanganligi va sifati pirovardida korxonaning resurs salohiyati darajasini belgilaydi. Tashkiliy va boshqaruv resurslari inson resurslariga tegishli bo'lib, mohiyatan xo'jalik yurituvchi subyektning o'zini tashkil etish, o'zini boshqarish va o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki qobiliyati va tayyorligini tavsiflaydi. Shuning uchun, o'z funksional xususiyatlariga ko'ra, ular transformatsiondir.

Ushbu tarkibiy qismlarning miqdoriy xususiyatlari ularning hajmini va tarkibiy resurslarning o'zgarish tezligini aniqlaydi, sifat xususiyatlari esa har bir resurs birligining ularga bo'lgan ehtiyojni qondirish potensial qobiliyatini aks ettiradi.

O'rganilayotgan tushunchaning mohiyati shuni ko'rsatadiki resurs salohiyati korxonaning rivojlanishining yetakchi omillaridan biri sifatida talqin qilinishi mumkin. Shuni esda tutish kerakki, nafaqat moddiy, balki nomoddiy resurslar ham xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonaning imkoniyatlarini belgilaydi va uning faoliyati samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aynan nomoddiy resurslarga ijtimoiy sohaning rivojlanish darajasi va korxonalarni kadrlar bilan ta'minlanishini kiritish mumkin.

Korxonalar resurs salohiyati faoliyatining (shakllantirish, foydalanish va rivojlantirish) ikkita asosiy tamoyili taklif etiladi: resurs salohiyatining yetarlilik tamoyili - bu korxonaning balansida aks ettirilgan va belgilangan maqsad va strategik vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarning optimal tarkibi va miqdori bilan ta'minlanishini anglatadi. Ikkinchi tamoyil korxonalar faoliyatining samaradorligini aks ettiruvchi takror ishlab chiqarish tamoyili. Ushbu tamoyillar korxonalar resurs salohiyatining markaziy xususiyatlari bo'lib xizmat qiladi.

Ikkita asosiy tamoyildan tashqari, korxonaning resurs salohiyati faoliyatining boshqa muhim tamoyillari mavjud:

1. iqtisodiy resurslarni qamrab olish va jalb qilishning to'liqligi (resurslarni huquqiy ta'minlash, hisobga olish va baholash nuqtai nazaridan, ya'ni buxgalteriya hisobi va soliq hisobi qoidalari asosida joriy nazoratni amalga oshirishda korxonalar resurslarini real va ishonchli baholash);
2. foydalanish tejamkorligi (xarajatlarni optimallashtirish);
3. rejalashtirish va byudjetlashtirish (iqtisodiy salohiyatni rejalashtirish va moliyaviy resurslarni tejash rejimini amalga oshirish);
4. samarali boshqarish (resursdan foydalanish xarajatlari undan foydalanishning iqtisodiy daromadidan oshmasligi kerak);
5. innovatsion rivojlanish (buning asosida qayta ishlab chiqarishning yangi usullarini rivojlantirishni o'z ichiga oladigan, iqtisodiy resurslar va natijalarning o'zaro ta'siri yotadi).

Taqdim etilgan tamoyillar korxonaning resurs salohiyatini baholashning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash uchun asos bo'ladi.


Resurslarning mavjudligi, ularning sifat va miqdoriy tarkibi ko'p jihatdan korxonalar salohiyatini rivojlantirish strategiyasini tanlash va amalga oshirish samaradorligini belgilaydi. Resurs salohiyatining alohida unsurlarining yetishmasligi yoki yo'qligi ularni o'stirish va rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Resurslar odatda cheklangan va ulardan foydalanish samaradorligini ta'minlash uchun quyidagilar zarur:

- ularning optimal miqdoriga ega bo'lish;
- ular orasidagi muvozanatni ta'minlash;

- ularning har biridan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish.

Korxonaning barcha turdagi resurslaridan oqilona va samarali foydalanish – bu iqtisodiy funktsiyalar va o'zining resurs salohiyatidan samarali foydalanish birikmasi asosida korxonaning rivojlanishiga erishishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, ilmiy, moliyaviy va boshqa chora-tadbirlar va parametrlar majmui.

Xizmat ko'rsatish sohasining resurs salohiyatidan foydalanish xizmat ko'rsatish jarayonining samaradorligini oshirishni va xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarining raqobatbardoshligi va strategik rivojlanishini ta'minlaydi. (1-rasm).



1-rasm. Resurs salohiyatining strategik rivojlanishdagi o'ri

Raqobatlashgan bozor sharoitida korxonaning faoliyatini amalga oshirish uning muvaffaqiyatli raqobat kurashini olib borish, ma'lum raqobat ustunliklarini shakllantirish zarurligini belgilaydi. Ushbu ustunliklarning tabiati bozor muhiti va korxonaning qobiliyatiga, ya'ni uning resurs salohiyatiga bog'liq. Korxonaning strategiyalarini ushbu kontekstda ko'rib chiqish raqobatbardoshlikni ta'minlash strategiyasi tushunchasini uning asosiy raqobat ustunliklarini sifatli rivojlanishini ta'minlaydigan va uning o'sishiga yordam beradigan korxonaning resurs salohiyatini shakllantirish dasturi bo'lgan boshqaruv qarorlari to'plami sifatida tavsiflashga imkon beradi.

Resurs salohiyatini tahlil qilish korxonaning faoliyatida ajralmas tarkibiy qism bo'lib, u resurslarning hozirgi holatini o'rganishga, ularni iste'mol qilish samaradorligi darajasini aniqlashga, samaradorlikni oshirish, foyda olish va kelajakni aniqlash uchun iqtisodiy zaxiralardan maksimal darajada foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Korxonaning resurs salohiyati to'g'risida ma'lumotga ega bo'lgan holda, uning boshqaruv organlari tashqi muhitning imkoniyatlari va tahdidlarini baholashlari, tashkilotning hozirgi va istiqboldagi ehtiyojlarini aniqlashlari va shuning uchun o'z kompaniyasining kelajakdagi rivojlanishi to'g'risida iqtisodiy jihatdan to'g'ri qaror qabul qilishlari mumkin.

Korxonaning resurslaridan oqilona foydalanishning uslubiy asoslari – bu resurslarni o'rganish, safarbar qilish, to'plash, taqsimlash jarayonlarining samaradorligiga erishish, shuningdek resurslardan samarali va oqilona foydalanishga va korxonaning faoliyatidagi xavfni kamaytirishga qaratilgan rejalashtirish, nazorat qilish, monitoring va boshqa jarayonlarni amalga oshirishga bo'lgan kompleks yondashuv. Uslubiy asoslarni ishlab chiqish va ularni xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatida amalga oshirish uchun optimal iqtisodiy va ishlab chiqarish zarurati bilan yetarli miqdordagi resurslarga ega bo'lish kerak. Resurslar miqdori yoki iqtisodiy va jismoniy hajm dinamik va noaniq bo'lgan tashqi muhitning ta'sir omillariga qarshi turishga imkon beradi. Resurslarni boshqarishdagi iqtisodiy egiluvchanlik o'zgaruvchan muhitda samarali tartibga solish, resurslarning harakatlanish tezligi va tashqi muhitning ijobiy imkoniyatlaridan foydalanish uchun sharoit yaratadi.

Hozirgi kunda xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining resurs salohiyatini samarali amalga oshirishga yordam beradigan quyidagi chora-tadbirlarni taklif etiladi:

1) mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi korxonaning resurs salohiyatini shakllantirishda asosiy qo'llanma sifatida bo'lishi kerak;

2) mavjud resurslardan samarali foydalanish va aylanmaga yangi resurslarni joriy etish maqsadida jamiyat va davlat ehtiyojlari va har bir alohida korxonaning imkoniyatlarini doimiy tizimli monitoring qilish;

3) jalb qilingan va passiv resurslarni o'z vaqtida yangilash va tuzatib borish uchun siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy prognozlash vositalaridan maksimal darajada foydalanish.

Muhokama.

Aksariyat mualliflarning asarlarida resurs salohiyati ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishining u yoki bu bosqichida ijtimoiy ishlab chiqarishda ishlatiladigan barcha manbalar bilan ifodalanadi. Bu «resurs salohiyati» kategoriyasining asosiy xususiyatlaridan biridir. Iqtisodiy kategoriya sifatida resurs salohiyati subyektlar o'rtasida mavjud imkoniyatlarni to'plash va ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni ifodalaydi. Resurs salohiyatining mohiyati uning barcha tarkibiy unsurlarining o'zaro faoliyatidan iborat. "Resurs salohiyati" kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Resurs salohiyati, birinchi navbatda, oddiy miqdor emas, balki kompleks ravishda ishlatiladigan resurslar tizimidir, ya'ni ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida alohida resurslarning o'zaro bir-birini to'ldirishini ta'minlaydi (tizimda bitta resursning ko'payishi bir vaqtning o'zida boshqa resurs miqdorining ko'payishini nazarda tutadi);

2. Resurs salohiyati ijtimoiy ishlab chiqarishda ishlatiladigan resurslarning bir-birining o'rnini bosish imkoniyatini beradi. Resurslarning aksariyat turlarining ko'p funktsionalligi belgilangan bir xil yakuniy natijaga erishish uchun ularning har xil turlari va unsurlaridan foydalanishning variatsiyasi uchun sharoit yaratadi.

3. Uning tarkibiga nafaqat ko'rib chiqilayotgan davrda iste'mol qilish uchun mo'ljallangan resurslar, balki ularning sug'urta va boshqa zaxiralari ham kiradi. Binobarin, resurs salohiyati ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida ularni iste'mol qilishning potentsial (nafaqat haqiqiy) imkoniyatini belgilaydi.

4. Resurs salohiyati tabiatda yoki jamiyatda mavjud bo'lgan ushbu resursning butun zaxirasini emas, balki jamiyatning texnologik rivojlanishining erishilgan darajasini va ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda olinadigan qismini tavsiflaydi. Shu sababli, resurs salohiyatiga faqat ijtimoiy rivojlanishning ushbu bosqichida olish mumkin bo'lgan va samarali bo'lgan resurs manbalari kiradi.

5. Resurs salohiyatiga nafaqat mavjud resurslar tizimi, balki muqobil resurslar va ularning manbalari ham kiradi, ya'ni ilgari mavjud bo'lmagan (yoki foydalanilmagan) resurslarning yangi turlari bo'lib, ulardan foydalanish imkoniyati ilmiy asoslangan bo'ladi.

Turli xil ilmiy qarashlarni o'rganish va tizimlashtirish natijasida biz korxonaning (faoliyat turining) resurs potentsiali deganda iqtisodiy samaraga erishishga imkon beradigan bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mavjud resurslar turlari majmui tushunilishi kerak degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda resurs salohiyatini obyekt sifatida o'rganishning ikkita yondashuvi mavjud: resurslarga asoslanadigan va natijaga asoslanadigan. Resurslarga asoslanadigan yondashuv resurs salohiyatini xo'jalik bo'g'inining resurslari to'plami sifatida ko'rib chiqadi, resurs salohiyatini baholash mavjud resurslarning qiymatini aniqlash, resurs salohiyatidan foydalanish darajasi esa olingan natijaning ishlatilgan resurslar hajmiga nisbati bilan belgilanadi. Natijaga asoslanadigan yo'nalish doirasida resurs salohiyati xo'jalik tizimning ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun resurslarni o'zlashtirish, qayta ishlash qobiliyati sifatida ko'rib chiqiladi, resurs salohiyatining qiymatini baholash xo'jalik bo'g'ini ma'lum miqdor, sifat va resurslar tuzilishi bilan ishlab chiqarishga qodir bo'lgan maksimal aylanmani baholash bilan belgilanadi. [7]

Resurs salohiyati korxonada faoliyatini amalga oshirish jarayonida amalga oshiriladi. Ushbu faoliyat korxonada xodimlarining mehnat vositalari va obyektlariga faol va maqsadli ta'siridan iborat bo'lib, natijada yangi tovarlar va xizmatlar paydo bo'ladi.

Resurs salohiyatidan foydalanishning muhim bosqichi ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni sotish, foyda olish, allaqachon o'zlashtirilgan bozorlarda mustahkam o'rnatish va yangilarini o'zlashtirishdir.

Korxonalarining rivojlanish jarayonida resurs salohiyati oshishi yoki kamayishi mumkin. Xizmatlarga bo'lgan talabning doimiy pasayishi tufayli ham salohiyat pasayishi mumkin.

Resurs salohiyatining mazmuniga nazariy yondashuvlarni umumlashtirish resurs salohiyatining umumiy tasniflash xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi [8]. Ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatida ishtirok etish darajasiga qarab, resurs salohiyatining turli unsurlari bir xil rol

o'ynamaydi, shuning uchun resurs salohiyatining tuzilishini o'rganishda uning tarkibida faol va passiv qismlarni ajratish kerak.

Iqtisodiy faoliyatga jalb qilingan va uning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan resurslar salohiyatning faol qismiga kiritiladi: amaldagi asosiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlari; ishlab chiqarish va muomala sohasidagi moddiy boyliklarning me'yoriy zaxiralari; iqtisodiy faol aholining band qismi; texnologiyalar, vositalar, obyektlar va mehnat mahsulotlarida amalga oshirilgan ilmiy va texnik ma'lumotlar.

Mavjud, ammo iqtisodiy aylanmada ishtirok etmaydigan resurslar resurs salohiyatining passiv qismiga tegishli: ishlab chiqarish va muomala sohasidagi me'yoridan ortiqcha zaxiralar va moddiy boyliklar rezervlari; mehnat resurslarining band bo'lmagan qismi; loyihalarda amalga oshirilgan ilmiy va texnik ma'lumotlar; ilmiy va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar natijalari.

Resurs salohiyati tarkibida faol va passiv qismlarni ajratish ham nazariy, ham amaliy nuqtai nazardan juda muhimdir, chunki bu, birinchidan, resurs salohiyatidan foydalanish darajasini obyektiv baholashga, ikkinchidan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning intensiv va ekstensiv zaxiralarini aniqlashga imkon beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning imkoniyatlaridan foydalanish darajasiga ko'ra resurs salohiyati haqiqiy (hozirgi vaqtda erishilgan) va istiqbolligiga ajratiladi. Bunday farqlash resurs salohiyatining istiqbolli darajasini uning haqiqiy qiymati bilan taqqoslash orqali resurs salohiyatidan foydalanish darajasini baholashga imkon beradi. Xo'jalik tizimning potentsial imkoniyatlarini aniqlash asosiy bosqich hisoblanadi.

Shu bilan birga, resurs salohiyatini boshqa muhim xususiyatlarga ko'ra ham tasniflash mumkin: hududiy, tarmoq, tashkiliy, boshqaruv, takror ishlab chiqarish, axborot mavjudligi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot mantig'iga muvofiq bir qator xulosalar chiqaramiz.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining resurs salohiyati xizmatlarni ko'rsatish va maksimal iqtisodiy samaraga erishish uchun tadbirkorlik faoliyatida ishlatilishi mumkin bo'lgan mavjud vositalar, imkoniyatlar va manbalarni qamrab oladi. Resurs salohiyatini mehnat, ishlab chiqarish, iste'mol va moliyaviy salohiyat majmui sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasi dunyoning ko'plab mamlakatlari rivojlanishining muhim omilidir, chunki xizmat ko'rsatish sohasi postindustrial iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida tavsiflanadi va inson ehtiyojlarini qondirishning asosiy usuli bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, so'nggi paytlarda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotida xizmat ko'rsatish sohasining ulushining oshib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarining barqaror rivojlanishi ko'plab omillar bilan belgilanadi, shunday omillardan biri resurs salohiyatidir.

Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining resurs salohiyatini samarali amalga oshirishga yordam beradigan quyidagi chora-tadbirlarni taklif etamiz:

1) mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi korxonaning resurs salohiyatini shakllantirishda asosiy oriyentir bo'lishi kerak;

2) mavjud resurslardan samarali foydalanish va aylanmaga yangi resurslarni joriy etish maqsadida har bir alohida korxonaning imkoniyatlarini doimiy tizimli monitoring qilish;

3) jalb qilingan va passiv resurslarni o'z vaqtida yangilab borish uchun siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy prognozlash vositalaridan maksimal darajada foydalanish;

4) uzluksiz ta'lim tizimini vaqt muammolariga javob beradigan va dunyo miqyosida vakolatli bo'lgan mutaxassislarni shakllantirish manbai sifatida ommalashtirish.

Resurs salohiyati barcha moddiy va nomoddiy resurslar majmuasini o'z ichiga olib, ular birgalikda yuqori barqaror iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, korxonaning resurs salohiyatiga nafaqat ma'lum bir vaqtda ishlatiladigan resurslar, balki passiv holatidagi resurslar ham kiritilishini tushunish muhimdir.

Shunday qilib, korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanishning uslubiy asoslari quyidagilarga qaratilgan:

- korxonalar resurslarini boshqarishning yangi tuzilishini yaratish va ulardan foydalanishni bashorat qilishda obyektivlikni oshirish imkoniyati;

- xizmat ko'rsatish va resurslardan foydalanishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Bunday holda, cheklangan resurslarga bo'lgan ehtiyojni ko'rib chiqish ulardan foydalanishning zamonaviy dasturlarini ishlab chiqishga imkon beradi;
- asosiy va boshqa turdagi xarajatlarni kamaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida korxonaning operatsion faoliyatini rejalashtirish;
- korxonani rivojlantirishning strategik va prognoz qilinadigan biznes qarorlarini ishlab chiqishda maqsadlarni aniqlash.

Resurslardan samarali foydalanishning uslubiy asoslari ilmiy, nazariy asoslarni va kontseptual yondashuvni ularni oqilona amaliy qo'llash maqsadida takomillashtirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Богомолова Е. В., Толстых Т. Н. Идентификация потенциала конкурентоспособности предпринимательских структур как резерва // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. 2011. No 12-1. С. 58–69.
2. Смагин Б. И. Методика оценки ресурсного потенциала в аграрном производстве // Достижения науки и техники АПК. 2003. No 2. С. 43–45.
3. Шатрова А. П. Алгоритм внедрения методики оценки ресурсного потенциала предприятия сферы услуг // Проблемы современной экономики. 2011. No 3. С. 392–395.
4. Свободин В. А. Вопросы определения и эффективности производственного потенциала // АПК: экономика, управление. 1991. No 3. С. 27–30.
5. Асхабалиев И. Ч. Формирование ресурсного потенциала платных услуг в регионах // Российское предпринимательство. 2008. № 7. С. 122–125.
6. Madraximova, G. (2023). SANOAT KORXONALARIDA RESURSLAR SALOHİYATINI IQTISODIY BAHOLASH ASOSLARI. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 24(3), 380–384. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1151>
7. Ускова С.И. Экономический потенциал предприятия как основа предпринимательской деятельности [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.science-bsea.narod.ru/2006/ekonom_2006_2/uskova_ekonom.htm
8. Святохо Н.В. Теоретические аспекты понятия "ресурсный потенциал" / Н.В. Святохо // Культура народов Причерноморья. – 2019. – No161. – С. 139–144.
9. Руцак, М.Ю. Многоаспектность понятий «экономический и ресурсный потенциал» предприятия, их взаимосвязь / М.Ю. Руцак, Н.В. Данькив // Научный вестник Ужгородского университета. Экономика. – 2012. – Вып. 36. – С. 182-186.
10. Морозова, Л.Э. Экспертные методы и технологии комплексной оценки экономического и инновационного потенциала предприятий / Л.Э Морозова, О.А. Бортник, И.С. Кравчук. – М., 2009. – 81 с.
11. O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish strategiyasining konsepsiyasi. https://static.norma.uz/official_texts/Концепция-Развития-Узбекистана-UZB.pdf
12. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi
13. Бердникова Л. Ф. Ресурсный потенциал организации: понятие и структура// Вектор науки ТГУ/ - 2011. -№ (15). - С. 201-203.
14. Хамидуллин, Ф.Ф. Методы оценки эффективного использования ресурсного потенциала предприятия / Ф.Ф. Хамидуллин, А.Р. Давлетшина. Вестник ТИСБИ. 2013. No 4. С. 100–108.
15. Разиньков, П.И. Ресурсы предприятия: оценка формирования и анализ использования / П.И. Разиньков, О.П. Разинькова, Тверь, Издатель-ство ТвГТУ, 2016. 304 с.
16. Межуева Е.Н. Ресурсный потенциал организации сферы услуг: методические подходы к оценке и управлению (на примере ЖКХ) // Риск. – 2014. –№ 1. – С.237-244.